

MULK HUQUQI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, OMMAVIY VA XUSUSIY MULK

Qadambayeva Ozoda Umid qizi

Bozorova Mohlaroyim Siroj qizi

O'zMU "Yurisprudensiya: biznes huquqi" yo'nalishi 2-bosqich talabalari
Ilmiy rahbar: yu.f.f.d. katta o'qituvchi **Rahimjonov Akmaljon Baxromjon o'g'li**

E-mail: akmaljonrakhimjonov@gmail.com

Orcid: 0009-0003-9781-291X

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik huquqida mulk huquqi tushunchasi, mulkka egalik qilish huquqi va uning bekor bo'lish asoslari, mulk shakllari to'g'risida so'z boradi.

Kalif so'zlar: mulk, davlat siyosati, mulkchilik shakllari, dastlabki va hosila usuli, natsionalizatsiya, musodara, normativ-huquqiy hujjat

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati har bir insonning o'z mulkiga (moddiy va ma'naviy) ega bo'lishini taqozo etadi. Chunki mulk insonda erkinlikning moddiy va iqtisodiy sharoitini yaratadi. Abu Ali ibn Sino shunday yozadi: "Odamlarning mulkiy tengsizligi, vazifasining bir xil emasligi, o'zaro farqlari inson ijtimoiy faoliyatining sababidir"²⁶. Boshqacha aytganda, inson iqtisodiy erkinligi o'zining moddiy ahvolini yaxshilash uchun intilishiga yo'l ochib beradi. Mamlakatimizda har bir insonni mulkdor qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu sababli, Bosh qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyamizning 41-moddasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi alohida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi qonuni, shuningdek Fuqarolik kodeksining 164-moddasida mulk huquqining tushunchasi keltirilgan: mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.

Mulkdan foydalanish deb, mulkning foydali xususiyatlarini olishga, mulkdan iqtisodiy ma'noda foydalanishga aytiladi. Mulkdan qonunga muvofiq ravishda foydalanuvchi shaxs shu mulkdan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Mulknı tasarruf etish huquqi deb, mulkning yuridik taqdirini

²⁶O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixi. –T., 1995. –B. 68.

belgilashga, ya'ni mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga aytiladi. Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari deganda, mulk huquqining olinishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq bo'lgan yuridik faktlar nazarda tutiladi.

Mulk huquqining vujudga kelish asoslari FK ning 182-moddasida keltirilgan: bular: mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish; davlat mol-mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa asoslar.

O'z navbatida, mulk huquqi vujudga kelishining dastlabki usullarga quyidagilar kiradi:

- mol-mulkni yaratish va ko'paytirish;
- mehnat faoliyati;
- mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish;
- davlat mol-mulkini xususiylashtirish;
- meros qilib olish;
- egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat;
- hamma yig'ib olishi mumkin bo'lgan ashyolarni mulkka aylantirish;
- egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi;
- topilmaga egalik huquqini olish;
- qarovsiz hayvonlarga egalik huquqini olish;
- xazinaga egalik huquqini olish;

Mulk huquqi vujudga kelishining hosila usullariga esa quyidagilar kiradi:

- bitim bo'yicha mol-mulkni olish;
- sudning qarori²⁷.

Mulk huquqining bekor bo'lish usullari ham xilma-xil. Bu usullarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

1) mulkdorning o'z erki-irodasi bo'yicha mulk huquqini bekor bo'lishi (masalan, mol-mulkni sotish, hadya qilish va sh.k.);

2) mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish (yo'q qilib tashlash) yoki nobud bo'lishi natijasida mulk huquqining bekor bo'lishi (FKning 198-moddasi);

²⁷ Yuldashev J.I. , Borotov M.X. , Topildiyev B.R. va boshqalar "Fuqarolik huquqi".Darslik. Toshkent 2017. 166-bet

3) mulkdorning erki, irodasidan tashqari mol-mulkning olib qo'yilishi orqali mulk huquqining bekor bo'lishi. Mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdorning majburiyatlari bo'yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo'l qo'yiladi (FKning 199-moddasi). Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo'la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo'lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo'yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to'lanadi (FKning 199-moddasi, 2-bandi). Yuqorida aytilgandan tashqari, tabiiy ofat (yong'in, zilzila va boshqalar) natijasida ashyoning nobud bo'lishi holatida mulk huquqi bekor qilinishi mumkin. Ashyoning nobud bo'lganidan keyin, saqlanib qolgan unga tegishli tarkibiy qismlar, agarda alohida ma'lum ashyolarga nisbatan qo'yiladigan talablarga javob bersa, mulkdoriga tegishli bo'ladilar.

Mulk shakllariga keladigan bo'lsak, FKning 167-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida mulkchilikning quyidagi shakllari mavjud:

1. Xususiy mulk.

2. Ommaviy mulk

Xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. (FK 207-modda)

Fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar.

Ommaviy-huquqiy tuzilma sifatida davlat o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan, mulkiy huquqidan foydalangan holda fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etadi. Aynan ushbu mulk ommaviy mulk hisoblanadi. Davlat mulki tarkibida mavjud mulk ikki qismga bo'linadi. Uning bir qismi xo'jalik yuritish yoki operativ boshqaruvning cheklangan, lekin to'la darajali mustaqil ashyoviy huquqlari asosida davlat yuridik shaxslariga, korxonalariga va muassasalarga birlashtiriladi. Bu "taqsimlangan davlat mulki" deb nomlangan mulk mazkur tashkilotlarning mustaqil yuridik shaxslar sifatida muomalada bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi²⁸. Ommaviy mulkning ikkinchi tarkibiy qismi – bu davlat korxonalariga va muassasalariga birlashtirilmagan mulk yoki "taqsimlanmagan" deb atalmish davlat mulkidir. Bu eng avval, tegishli budjetning mablag'lari, oltin zaxirasi, valyuta jamg'armasi va boshqa har xil davlat jamg'armalaridir. Bu mulk mulkdor davlatning majburiyatlari bo'yicha

²⁸ Yuldashev J.I., Borotov M.X., Topildiyev B.R. va boshqalar "Fuqarolik huquqi". Darslik. Toshkent 2017. 179-bet

uning kreditorlari tomonidan undirish obyektiga aylanishi mumkin bo'lgan mol-mulkdir²⁹.

Ommaviy mulk munitsipal mulk va respublika mulkidan iborat bo'ladi. Munitsipal mulk deganda, ma'muriy-hududiy birliklar mulki, xususan, davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budget mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk tushuniladi³⁰. Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari, respublika budgetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budget yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulk respublika mulki bo'lishi mumkin³¹. Yuqoridagi usullardan tashqari ommaviy mulk, aynan respublika mulki natsionalizatsiya, rekvizitsiya va musodara kabi maxsus yo'llar bilan ham vujudga keltiriladi.

Natsionalizatsiya — fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonunga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdan iborat³².

Tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tUSDagi boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishi mumkin (rekvizitsiya)³³.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamasdan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin (musodara)³⁴.

Soliqlar, har xil to'lovlar, mulkni xususiylashtirish, ishlab chiqarishdan olingan daromad, kredit, zayom va boshqalar ommaviy mulk manbalaridir.

²⁹ Yuldashev J.I., Borotov M.X., Topildiyev B.R. va boshqalar "Fuqarolik huquqi". Darslik. Toshkent 2017. 180-bet

³⁰ *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Fuqarolik kodeksi. 215-modda.*

³¹ <https://lex.uz/acts/-111189>

³² *Fuqarolik kodeksi. 202-modda.2*

³³ *Fuqarolik kodeksi. 203-modda.*

³⁴ *Fuqarolik kodeksi. 204-modda.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixi. –T., 1995. –B. 68.
2. Yuldashev J.I. , Borotov M.X. , Topildiyev B.R. va boshqalar “Fuqarolik huquqi”. Darslik. Toshkent 2017. 166-bet
3. Yuldashev J.I. , Borotov M.X. , Topildiyev B.R. va boshqalar “Fuqarolik huquqi”. Darslik. Toshkent 2017. 179-bet
4. Yuldashev J.I. , Borotov M.X. , Topildiyev B.R. va boshqalar “Fuqarolik huquqi”. Darslik. Toshkent 2017. 180-bet
5. **Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi**. Fuqarolik kodeksi. 215-modda.
6. <https://lex.uz/acts/-111189>
7. **Fuqarolik kodeksi. 202-modda.**
8. **Fuqarolik kodeksi. 203-modda.**
9. **Fuqarolik kodeksi. 204-modda.**
10. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
11. <https://lex.uz/docs/-6445145>